

## MODULLI TA'LIM MUHITIDA ANTROPOSENTRIK YONDASHUVNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

*Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna,*

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*professori, pedagogika fanlari doktori*

**Annotatsiya:** maqolada kredit-modul tizimiga o'tish zarurati, modulli o'qitish texnologiyasining o'ziga xosligi, mazkur texnologiyani ona tili ta'limida qo'llash tamoyillari, "Ona tili o'qitish metodikasi" fani bo'yicha modulli ta'lim texnologiyasining antroposentrik yondashgan holdagi bosqichlari, antroposentrik yondashuv ta'lim oluvchilarning darsdagi bilish faolligi va mustaqilligini rivojlantirishi masalalari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** kredit-modul tizimi, modulli o'qitish texnologiyasi, ona tili ta'limi, qo'llash tamoyillari, antroposentrik yondashuv, matn ustida ishlash, individual ta'lim.

**Kirish.** Pedagogik texnologiyaning milliy modelini ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish yo'lida o'quv fanlari mashg'ulotlarining modulli texnologiya asosidagi loyihalarini antroposentrik yondashuv asosida tuzish kunning dolzarb masalasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalarni, zamonaviy o'qitish usullarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, kredit-modul tizimini joriy etish, o'quv rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Mamlakatdagi oliy ta'lim muassasalarining 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan[1]. Bu holat yaqin yillar davomida mamlakatdagi deyarli barcha oliy ta'lim muassasalarining kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi. Modul tizimi asosida ta'lim berishning afzalligi shundaki, e'tibor ko'proq ta'lim oluvchiga, uning o'z ustida mustaqil ishlashi hamda o'z-o'zini nazorat qilishiga

qaratiladi[2]. Modulli o'qitish, asosan, inson bosh miyasi to'qimalarining modulli tashkil etilganligiga tayanadi. Inson miyasi ham modulli tugunlardan tashkil topgan bo'lib axborotlar ana shu modullarda assotsiatsiyalashadi, deyiladi[3].

Ta'lim muassasalari faoliyatini texnologiyalashtirishning nazariy asoslarini yaratishga oid xorijda G.K.Selevko [4], V.V.Serikov [5] va boshqa olimlar tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilgan. O'zbekistonda ham R.Safarova[6], N.M.Egamberdieva[7], M.Sobirova[8,9,10,11,12] va boshqa olimlar tomonidan yangi pedagogik texnologiyalar, xususan, modulli ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish samaralarini o'rganish, yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini topishga qaratilgan faoliyat olib borilmoqda. Ular o'z ilmiy izlanishlari natijasida o'qitish jarayonining ilmiy-texnik taraqqiyot darajasidan orqada qolishning asosiy sababi – o'quv-dasturiy hujjatlarning fan-texnika yutuqlari va ishlab chiqarishni tashkil etish texnologiyasi takomillashuviga mos ravishda takomillashib bormayotganligidadir, degan xulosaga kelishgan. Shu bilan birga, o'quv-dasturiy hujjatlarini modulli qoida asosida tuzish ta'lim jarayonini jadallashtirishning muhim omillaridan biri ekanligi ham ta'kidlangan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada kredit-modul tizimiga o'tish zarurati, modulli o'qitish texnologiyasining o'ziga xosligi, mazkur texnologiyani ona tili ta'limida qo'llash tamoyillari, bu o'rinda antropotsentrik yondashuvning ta'siri, matn ustida ishlash, individual ta'lim kabi masalalar tahlil qilinadi.

**Tahlillar va natijalar.** Tahlillar barcha sohalarda shiddat bilan rivojlanayotgan islohotlarni mamlakatimizning jahon tsivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo'lida sifatli ilgarilashini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar, texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etishini ko'rsatmoqda.

Bugun ta'limga *modul* termini kirib keldi. Pedagogikada modul – bu o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi. Modulli ta'lim pedagogik texnologiyani tashkil etuvchi tarkibiy bo'laklarni ifodalaydi. Modul lotincha “modulus” so'zidan olingan bo'lib, “qism”, “bo'lak”, “blok” ma'nolarini anglatadi.

Ushbu ta'lim texnologiyasi dars jarayonini tashkil etishdagi eng kichik ish turlaridan, ularning turli miqdordagi to'plamlaridan iborat bo'ladi. Bunda eng kichik faoliyat turi eng kichik modul sanalib, boshqalari qancha modulni qamrab olishiga qarab o'ziga mos darajadagi modullar sanaladi. Modulli o'qitish texnologiyasi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi sifatida ta'lim jarayoniga tobora kengroq qo'llanilmoqda.

Bizningcha ham, modulli o'qitish texnologiyasi majmualari yondashuvni ifodalaydi. Modul – bu o'quv axborotining mantiqiy ajratilgan qismi bo'lib, u bir butun, tugallangan mazmun va o'zlashtirish nazoratidan iborat. Modul umumiy faoliyatga kirishish, umumiy maqsad doirasida muntazam ongli ishlashga imkoniyat yaratadi[11].

Ona tili modulli ta'limining maqsadi ham barcha ta'lim texnologiyalari singari davlat standartiga tayanadi. Mazkur ta'lim texnologiyasining maqsadi qancha aniq bo'lsa, unga erishish darajasi shuncha oson bo'ladi. Ushbu bosqichdagi dastlabki vazifa – o'quv materialini mazmuni va undagi muhim jihatlarni anglash, umumlashtirish, ularni talaba hayoti bilan bog'lashga yo'naltirish, o'qituvchi va talaba munosabatlari tabiatini belgilab olishdan iboratdir.

Tadqiqotimiz davomida yuqoridagi fikrlarga tayangan holda “Ona tili o'qitish metodikasi” fani bo'yicha modulli ta'lim texnologiyasini antropotsentrik yondashgan holda ishlab chiqdik. Mazkur fan bo'yicha ushbu texnologiya quyidagi bosqichlardan iborat bo'ldi:

I bosqich. “Ona tili o'qitish metodikasi” fanining o'quv rejasidagi makromodulga kiruvchi fanlarning o'quv dasturlari orasidagi o'zaro bog'liqliqligini o'rganish.

II bosqich. “Ona tili o'qitish metodikasi” fanining modulini tuzish.

III bosqich. Modulning ma'ruza matnini yaratish.

IV bosqich. Modulning o'quv-ko'rgazma qurollari, tarqatma materialini, taqdimot-slaydlarini ishlab chiqish.

V bosqich. Modullarga ajratib o'qitish tamoyillari asosida o'qitish

texnologiyasini loyihalash, ya'ni texnologik xarita ishlab chiqish.

VI bosqichda bir vaqtning o'zida o'rgatilayotgan fanning soatlari sonini hisobga olib, mashg'ulot jadvalini tuzish.

VII bosqich. Modul bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish uchun testlar, individual va mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, o'quv-uslubiy, o'quv-ilmiy adabiyotlar ro'yxatini tayyorlash.

VIII bosqich. Modul uchun tarqatma va tasvirli materiallar to'plami tuzish hamda ularni mashg'ulotdan oldin berish. Talabalarni tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro'yxati bilan ta'minlash.

Modulli ta'lim texnologiyasi ona tili ta'limida ta'limning belgilangan tamoyillariga muvofiq tarzda rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Bunda motivatsiya (talabaning bilishga bo'lgan ichki ehtiyoji), modullilik, muammolilik, hamkorlikka asoslanish, didaktik o'yinlar, audio-vizual va hk. tamoyillar nazarda tutiladi.

Modulli ta'lim muhitida "Ona tili o'qitish metodikasi" fanini o'qitishga antropotsentrik yondashuvdan maqsad ta'lim maqsadi, mazmuni, usul va shakl hamda vositalarini talabaning ehtiyojlarini hisobga olgan holda bugungi globallashtirish va ziddiyatli davrda ta'lim jarayonlarini antropotsentrik gumanizm bilan uyg'unlashtirishdan iborat.

"Ona tili o'qitish metodikasi" modulini ishlab chiqishda ta'limning kontseptual asosi e'tiborga olinadi. Unda ta'limning nazariy g'oyalari va umumiy xulosalari hisobga olinib, ta'lim maqsadlariga erishishning falsafiy, psixologik, didaktik va ijtimoiy-pedagogik asoslarini o'z ichiga oluvchi ilmiy kontseptsiyaga tayaniladi. Chunki mazkur modul yuqori darajadagi yaxlitlik tizimida o'quv mazmuni va uni o'zlashtirish texnologiyasini birlashtiruvchi maqsadli funktsional tarmog'i hisoblanib, olingan bilim va ko'nikmalarni majburiy tarzda nazorat qiluvchi o'quv materiallari hamda bilimlarni nazorat qilish bilan uyg'unlashgan, tugallanganlikka ega o'quv axborotidagi mantiqiy belgilangan qismidir. Moduldan aniq maqsadni ko'zda tutib, ob'ektlarning muhim jihatlarini mantiqan tugal holda yorituvchi o'quv materialining didaktik birligi hamda shakliy ko'rinish[13] hamda

unga tegishli metodik materiallar bilan birgalikdagi o'quv kursining mazmunli qismi[14] sifatida ham tushuniladi

“Ona tili o'qitish metodikasi” fanini modul asosida o'qitishning mohiyati shundan iboratki, ta'lim oluvchi (talaba) o'ziga taqdim etilgan individual o'quv dasturi (sillabus) asosida mustaqil ish olib boradi. Bu o'quv dasturida harakatlarning rejasi, axborotlar blogi, o'qitish natijalariga erishish bo'yicha metodik tavsiyanomalar bo'ladi. O'qituvchi modulli ta'lim muhitida nazorat qilish, maslahat berish, axborotlarni o'zlashtirish bo'yicha harakatlarni muvofiqlashtirish vazifalarini bajaradi.

“Ona tili o'qitish metodikasi” fanini modulli ta'lim texnologiyasida o'qitishning mazmuni: unga o'qitish maqsadlari – umumiy va aniq maqsadlar; o'quv materialining mazmuni; jarayonli qismida esa texnologik jarayon: o'quv jarayonini tashkil etish; talaba o'quv faoliyati usul va shakllari; o'qituvchi ishining usul va shakllari; materialni o'zlashtirish jarayonini boshqarish bo'yicha o'qituvchi faoliyati va o'quv jarayoni tashxisidan iborat bo'ladi. Ta'lim jarayonini modullar asosida loyihalashtiriladi. Unda talabalarning fan dasturi asosida mustaqil ta'lim olishlariga alohida urg'u beriladi, uni tashkil etish mexanizmi antropotsentrik yondashuv asosida amalga oshiriladi.

“Ona tili o'qitish metodikasi” fani modulli ta'lim texnologiyasi maqsadi uning dasturini bosqichma-bosqich amalga oshirilishi orqali ro'yobga chiqadi. Modulli ta'lim asosida mazkur fanning o'quv mashg'ulotlari loyihalari tuzib chiqiladi. “Ona tili o'qitish metodikasi” fan moduliga ma'ruza, amaliy, seminar mashg'ulotlarining loyihasiga belgilab qo'yiladi. Ona tili o'qitishning mazmuni va metodlari talabalarga dastur talab qilgan hajmda puxta bilim berish, ko'nikma va malakalar hosil qilishga hamda antropotsentrik yondashuv asosida qaralganda ulardagi shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga qaratiladi. Bunda har bir talabaga murakkablik darajasi bo'yicha alohida yondashuv bo'lishi lozim. Natijada, talaba o'ziga muhim bo'lgan bilimlar miqdorini egallaydi. Mashg'ulotning har bir bosqichida nazoratning turli usullari qo'llaniladi: o'qituvchi tomonidan nazorat,

o‘zaro nazorat, o‘z-o‘zini nazorat qilish. Bularning hammasi talabalarning faollashishiga ko‘maklashadi.

Modulli ta‘lim texnologiyasi talabaning o‘qish jarayoniga antropotsentrik yondashuvi va ijodiy munosabati bilan nazariya va amaliyotni o‘rganish bo‘yicha kompleks faoliyatini mujassamlashtiradi.

O‘qituvchi o‘zining fani bo‘yicha 4-5 varaqli fan dasturini, ya‘ni “sillabus”ni tayyorlaydi va uni semestr boshida talabalarga taqdim etadi. Fan dasturi o‘zida ushbu fanning maqsadlari, uning o‘quv dasturida tutgan o‘rni, talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun ahamiyati, talabalar ushbu fanni o‘rganish natijasida nimalar qila olishi, ushbu fan bo‘yicha semestr davomida o‘rganiladigan mavzular, talabalar foydalanishi zarur va mumkin bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati, baholash mezonlari haqidagi ma‘lumotlarni qamrab oladi. Bo‘lg‘usi ona tili o‘qituvchilari dastur profili yordamida dastur davomida o‘zlarida qanday jihatlar shakllanishi haqida oldindan tushunchaga ega bo‘ladilar va shu “xarita” asosida harakat qiladilar.

Talabalar modul materiallarini oldindan o‘zlashtira boradilar. Modulning amaliy mashg‘ulotlari ma‘ruzalar bilan birga tuziladi. Talabalar ma‘ruzalar mazmunini o‘rganiladigan yangi material bilan to‘ldira borishadi hamda modul bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Ma‘ruzalar matnini tayyorlashda mavzuga mos to‘g‘ri va ilmiy rejalar tuzish, tarkibini aniqlashtirish va tizimlashtirish, ilmiylik, izchillik, sistemalilik, nazariyani amaliyotga bog‘lash kabi printsiplarga amal qilinsa hamda materiallarni taqdimot-slaydlar, blok-sxemalar, jadvallar, rasmlar bloki, videolavhalar yoki grafik orgayzerlar ko‘rinishida yoki mavzu xususiyatidan kelib chiqib, ular uyg‘un holda taqdim etilsa, talabalarning beriladigan ma‘lumotlarni o‘zlashtirish samaradorligi oshadi. Chunki bu jarayonda modulning maqsadi tushunib yetiladi; o‘quv materialining elementlari orasidagi bog‘lanishlar va uning asosiy jihatlarini ajratib ko‘rsatiladi; o‘quv materialining (modulning) butun hajmi talabaning ko‘z oldida gavdalanadi.

“Ona tili o‘qitish metodikasi” moduliga – ta‘lim berish, tarbiyalash,

o'qitishdan ko'zlangan maqsadlar va natijalarga nisbatan muayyan mantiqiy tugallikka ega bo'lgan o'quv fani (kursi) qismlarining majmuasi sifatida yondashiladi. Uning tarkibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

Fanning namunaviy dasturi, ishchi-o'quv dasturi, texnologik xaritasi, kalendar rejasi, nazariy va amaliy darslar rejasi, ma'ruzalar matni, asosiy tayanch tushunchalar, amaliy mashg'ulot o'tkazish uchun masala-mashqlar, keyslar, testlar, turli metodlarni qo'llash uchun topshiriqlar, mavzular bo'yicha savollar, joriy, oraliq, yakuniy nazorat savollari va baholash mezonlari, mavzular bo'yicha tayyorlangan taqdimot-slaydlar, blok-sxemalar, jadvallar, rasmlar bloki, videolavhalar, grafik orgayzerlar va boshqa namoyish etiluvchi materiallar, amaliy ish o'yin usullari, fandan kurs ishi mavzulari, adabiyotlar ro'yxati, yozma ish savollari va boshqalar. Fanning xususiyati va qo'yilgan maqsaddan, mutaxassislarni tayyorlashda fanning tutgan o'rnidan kelib chiqqan holda mazkur ro'yxat qisqarishi yoki qo'shimchalar qo'shilishi mumkin.

“Ona tili o'qitish metodikasi” moduli ham nazariya, ham amaliyot talab qilgani uchun uni yaratishda ilmiylik, tarixiylik va zamonaviylik, gumanizm va milliylik, izchillik, nazariya bilan amaliyot birligini ta'minlash, raqobatbardoshlik, innovatsion o'zgarishlarni hisobga olish kabi tamoyillarni e'tiborga olish zarur hisoblanadi:

Odatda, talabaning umumiy o'quv yuklamasi auditoriya va mustaqil ta'lim yuklamalaridan iborat. Amaldagi ta'lim tizimida auditoriya yuklamalariga katta e'tibor qaratadi va mustaqil ish turlarini muhim hisoblamas edi. Kredit tizimida, eng avvalo, talabaning mustaqil ishiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Kredit-modul tizimida esa fan moduli tarkibidagi “O'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi” (O'RTMI) va o'qituvchiga bog'liq bo'lmagan “Mustaqil ta'lim” (MT) muhim ahamiyat kasb etadi. O'RTMI ga keyslar, topshiriqlar, intervyu, krossvord, viktorina, esse, dayjest, taqdimot, hisob ishi, hisob-chizma ishi, kurs loyihasi, kurs ishi, ilmiy izlanishlar, fan to'garaklarida qatnashish va h.k.larni misol qilib keltirish mumkin.

Modulli ta'lim muhitida “Ona tili o'qitish metodikasi”ni o'zlashtirgan talaba,

tabiiyki, o'rganganlarini malakaviy amaliyot (pedagogik amaliyot)da o'rta umumta'lim maktablaridagi ona tili mashg'ulotlarida qo'llaydi. Pedagogik amaliyotga chiqqanimizda 7-sinflar ustida tajriba ishlarini olib bordik.

7-sinfda matn ustida ishlash, tahlil qilish ishlari davomli amalga oshirib kelinayotgan bo'lsa-da, o'quvchilarning uchdan bir qismi o'qib tushunishning birinchi va ikkinchi darajalarini birdaniga o'zlashtira olganligini kuzatdik. O'quvchilarning qolgan ikki qismini ham shu darajaga yetkazish va so'ng imkon qadar butun sinfni keyingi idrok bosqichi (uchinchi daraja)ga ko'tarish uchun antropotsentrik yondashga holda quyidagi topshiriqlarni berish samarador bo'ldi:

1. Siz ko'chma ma'nodagi so'z va iboralarni bilasiz. Shularni matndan toping.
2. Bu so'z va iboralarning alohida olingandagi (atash) ma'nosini eslang va aniqlang.
3. Ularning matndagi ma'nosiga ko'ra sinonimlarini keltiring.
4. Bu so'zlarning o'rniga atash ma'nosi yoki sinonimlarini qo'llab, so'z birikmasi tuza olishingizga ishonaman.
5. Hosil qilingan so'z birikmalari asosida matnni qayta tuzing. Qayta tuzgan matningiz bilan oldingi matnni solishtiring va badiiy matndagi ushbu so'zlarning nechog'lik o'rinli qo'llanganligini izohlang kabi.

Ona vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish mazmunidagi badiiy matnlar ustida ishlash orqali pragmatik kompetensiyani shakllantirishda o'quvchilarga nazariy bilimlar berish ham ta'lim samaradorligini oshiradi. Chunki matnga singdirilgan insoniylik g'oyalari keng tarzda tahlil qilingandagina chuqur his qilinishi va o'zlashtirilishi mumkin.

Talabalarni maktab amaliyotiga olib chiqqanimizda bugun amaliyotda keng tarzda qo'llanila boshlagan interfaol usullardan **“Kredit ball yig'ish”** usuli samara berganini kuzatdik.

7-sinf ona tili darsidagi yordamchi so'z turkumlariga oid mavzularni mustahkamlash darslarida bu usuldan foydalanilsa maqsadga muvofiq. O'quvchilar uch guruhga ixtiyoriy tarzda bo'linadilar. Sinf doskasiga raqamlar yozilgan stiker

yoki qog‘oz yopishtirib qo‘yiladi. Guruhlardan vakil kelib, birini tanlaydi. Pastda ko‘rsatilgandek har bir raqam uchun o‘qituvchi tomonidan kichik matn tayyorlangan bo‘ladi. Uch daqiqa vaqt barcha guruh uchun belgilanadi. Chekiga tushgan matnni o‘qib, matnda qo‘llangan vazifadosh bog‘lovchi, ko‘makchi va vazifadosh modal so‘zlarni aniqlaydilar va har birini izohlab beradilar. Izohlash davomida bog‘lovchi, ko‘makchi, modal so‘zlar ishtirokida o‘zi ham mustaqil tarzda mazmunli va ma’rifiy ahamiyatga ega gaplar tuza olgan yoki maqollar ayta olgan o‘quvchiga yoki guruhga kredit bali qo‘shib beriladi.



“Kredit ball yig‘ish” usulini qo‘llash jarayonida o‘quvchilarda topqirlik, zukkolik, nazariyani amaliyotga bog‘lash kompetentsiyalari rivojlanib boradi.

Odatda, 7-8-sinf o‘quvchilarida atrofni, insonlarni kuzatish, ularni baholash, voqelikka tanqidiy nazar bilan munosabatda bo‘lish ortib boradi. Shu bois ham badiiy matnni til sathlari bo‘yicha analiz va sintez jarayonida, til birliklariga nutq vaziyatlarida pragmatik yondashish borasida o‘ziga xos munosabat shakllana boradi. Sinflar yuqorilab borgani sari matn tahlili orqali o‘quvchilarning pragmatik kompetensiyalari rivojlanib boradi. Matnlar ustida ishlash, til hodisalarini nazariy va amaliy idrok etish, his qilish darajalari o‘sadi, fikrlari nisbatan teranlashib boradi. Shu tufayli yuqori sinfda mustaqil fikr, erkin mulohaza nisbatan yuqoriroq ekanligini maktab tajribalarimizda kuzatdik.

7-sinfning "Tasviriy va muhokama ko‘rinishidagi matnlar" mavzusi, 9-sinfning "Matn va uning maqsadi. Hikoya matni", "Muhokama matni" mavzulari, 10-sinf 3-chorakdan boshlab, nutq uslublari va ularning o‘ziga xosligi o‘rgatiladi. Ayniqsa, "Badiiy uslub", "Esse – ijodiy matn" mavzularini o‘tishda insoniy ehtiyojlar, oqil farzandning insoniyligi, go‘zallik insoniylikdaligi, noinsoniylik halokatga eltishi, e’tiborsizlik – millat fojiasi ekanligi xususidagi; har narsaning boshi – ilm ekanligi, ezguliklarning boshi yaxshilikligi, ustoz chin insonligi, yaxshi qo‘shnichilik, farzandlarni insoniy qilib tarbiyalash to‘g‘risidagi; yaxshilik,

kechirimlilik, mehr-muhabbat ulashish fazilati, mehmondo'stlik – insoniylik ramzi ekanligi, odamiylik unutilmasligi, insoniylikka doimo mukofot borligi mazmunidagi matnlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ta'lim sifatini va darajasini aniqlab beruvchi PISA, RIRLS kabi qator xalqaro dasturlar yaratilgan bo'lib, ular rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi ta'lim samaralarini yanada oshirishda asosiy mezon sifatida keng qo'llanilmoqda. Ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O'zbekiston uchun olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi; milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini rivojlantirish, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishni takomillashtirish hamda soha mutaxassisleri tomonidan darsliklarning takomillashtirilgan yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi. Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotdan maqsad o'quvchilarga o'qib tushunishi uchun hayotda ko'proq ishlatiladigan matnlarni taklif qilish bilan ular uchun umumiy va ahamiyatli bo'lgan natijalarni aniqlashdir.

Hozirgi zamonning eng muhim xususiyatlaridan biri – inson turmush tarzining barcha sohalariga ilmiy-texnika yutuqlarining tezkorlik bilan kirib, turmushning barcha jabhalari baynalminallashuviga kishilar faoliyatida umuminsoniy qadriyatlar ahamiyatini kuchaytirayotgan bo'lsa-da, o'z navbatida, insoniyat uchun dahshatli xavf-xatarni ham vujudga keltirmoqda. Bashariyat umuminsoniy qadriyatlarni saqlash, gumanistik pozitsiya va individuallikni uyg'unlashtirish orqaligina vaziyatdan chiqa oladi.

Modulli ta'lim muhitida ona tilini o'qitishda pirovard maqsadga yetishning bosh omillardan biri matn tahlili orqali o'quvchilarda nutqiy, lingvistik, pragmatik kompetentsiyani rivojlantirish va shu asosda milliy qadriyatlarni singdira borishdir. Til o'qitish maqsadidan kelib chiqib, insonparvarlik mazmunidagi badiiy matnlarni dars materiallari sifatida qo'llash, ular vositasida o'qib tushunish, ifodali o'qish, o'qib tushunganlarini so'zlab berish, matn tahlili, matndan olgan taassurotlarini

hissiy bo‘yoqdorlikni ta’minlovchi lisoniy birliklar vositasida og‘zaki va yozma shaklda ifodalash malakalariga egalik o‘quvchilar bilim darajasini ko‘rsatadi

Modulli ta’lim muhitidagi antropotsentrik yondashuv shaxsga individual yondashuv masalasini oldinga suradi va unga asoslanadi. Shaxsning individualligiga asoslanish bu shaxsning faolligini oshirish, uning yangi xususiyatlarini, qobiliyatlarini kashf etish va rivojlantirishdir. Modulli ta’lim har bir talabaning tanlash imkoniyatini va erkin rivojlanish imkonini yaratadi. Ya’ni “Rivojlantiruvchi ta’lim”ning ishga tushishini ta’minlaydi. Bu jarayonda “Xotira maktabi”dan fikrlash maktabiga o‘tish va undan keyin “Rivojlanish maktabiga” o‘tish maqsad qilib qo‘yiladi. Individual ta’limni rivojlantirish natijasida o‘z-o‘zidan ta’lim ko‘p profilli, ko‘p darajali yoki differentsiallashtirilgan (tabaqalashgan) bo‘lib qoladi. Albatta, bunday holda uzluksiz monitoring ishga tushirilishi shart. Agar avvallari bitta tanlab olingan traektoriyadan chetga chiqqan talabalarni shu traektoriyaga solishga harakat qilingan bo‘lsa, endilikda har bir talaba uchun o‘z rivojlanish trayektoriyasi ishlab chiqilishi va uning rivojlanish qadamlarini nazarat qilib borilishi lozim. Ya’ni har bir talabaning har tomonlama rivojlanishi o‘rganilib, so‘ng keyingi rivojlanish rejalari tuziladi.

**Xulosalar.** Demak, modulli ta’lim muhitida antropotsentrik yondashuv ta’lim oluvchilarning darsdagi bilish faolligi va mustaqilligini rivojlantiradi, o‘qishga ongli munosabatni kuchaytiradi. Ta’lim oluvchining keyingi o‘qishida muhim ahamiyat kasb etuvchi o‘quv fani mazmunini o‘zlashtirishga intilishi asta-sekin birinchi o‘ringa chiqib boradi. Keyingi bosqich sifatida darslarda muvaffaqiyatga erishish vaziyatining paydo bo‘lishi maydonga chiqadi. Bu talaba qobiliyatlarining yanada ochilishiga yordam beradi. Antropotsentrik yondashuv talabalarning bilim, ko‘nikma, malaka va shaxslik sifatlarini egallash, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, mustaqil fikrlashga odatlanish, tahlil malakalarini egallash, bilim va qobiliyatlarini baholay bilish, o‘zining xato-kamchiliklarini anglash va ularni bartaraf qila olishini ta’minlaydi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son bilan tasdiqlangan " O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", 1-ilovasi, 9-bandi; "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, 2019-yil 1-fevral.
2. Tojiboyeva D., Yo'ldoshev A. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2007. – B.83.
3. Avliyoqulov N. X., Musayeva N.N. Kasb-hunar kollejlarda kasbiy fanlarning modulli o'qitish texnologiyalari. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2005. –B.15.
4. Selevko G.K. Pedagogicheskie tekhnologii na osnove didakticheskogo i metodicheskogo usovershenstvovaniya. – M.: NII shkol'nykh tekhnologiy, 2005. – 288 s.
5. Serikov V.V. Lichnostnoy podxod v obrazovanii: konsepsii i tekhnologii. – Volgograd: Peremena, 1994.
6. Safarova R. va boshqalar. Umumiy o'rta ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning didaktik parametrlari. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 223.
7. Egamberdieva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuvi asosida bo'lajak o'qituvchilarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish. – T.: Fan va texnologiya, 2009.
8. Sobirova M. In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3880/3718>; Innovative Technologies of Teaching in the Field of Higher Education Techniques. **Design Engineering**. International Research Journal of Advanced Engineering and Science (IRJAES) SKOPUS 5288-5295 <http://thedesigengineering.com/index.php/DE/issue/view/31>; Anthropocentric approach to language. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 07 (111), <http://t-science.org/arxivDOI/2022/07->

111.html – P. 36-39; Teaching language phenomena on the basis of anthropocentric approach. <https://www.int-jecse.net/abstract.php?id=5377> International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) OI:10.9756/INTJECSE /V14I7.91 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 07 2022.

9. Sobirova, M.Y. (2023). The role of educational tools in anthropocentric relationship education. European Journal of Education and Applied Psychology 2023, No 4. <https://doi.org/10.29013/EJEAP-23-4-52-58>; Sobirova, M. (2023). Teaching language phenomena through text analysis on the basis of anthropocentric approach. International bulletin of applied science and technology. Impact factor: 8,2 SJIF = 5.955 ISSN: 2750-3402 Volume 3, Issue 4, April. 481-486-pages. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7827423>

10. Sobirova, M. (2023). Obuchenie yazykovym yavleniyam na osnove analiza teksta. “Etnokulturnyy i sotsiolingvisticheskiy aspekty v teorii i praktike prepodavaniya yazykov v negumanitarnykh vuzax” mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Minsk, 30 mart 2023 y., – B. 299-302. <https://rep.bntu.by/handle/data/130394>; Sobirova, M. (2022). Teaching language phenomena on the basis of anthropocentric approach. <https://www.int-jecse.net/abstract.php?id=5377> International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) OI:10.9756/INTJECSE /V14I7.91 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 07 2022.

11. Sobirova, M. (2022). Teaching language phenomena through text analysis on the basis of anthropocentric approach. International bulletin of applied science and technology. <https://www.int-jecse.net/abstract.php?id=5377> International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I7.91 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 07 2022. Impact factor: 8,2 SJIF = 5.955 ISSN: 2750-3402 Volume 3, Issue 4, April. 481-486-pages;

12. Sobirova, M. (2021). The use of integrated technology in the teaching of humanism in language education. POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 1(34) - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2021. Part 3 – 234 p. [https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2021/01/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%80%A2%201%20\(34\).pdf](https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2021/01/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%80%A2%201%20(34).pdf)

[84%9634%20-%203%20%28web%29.pdf](#) str. 98-105; Sobirova, M. (2020). International Scientific Journal “Theoretical & Applied Science” SOI: 1.1/TAS (<http://t-science.org/arxivDOI/2020/12-92.html>) ( DOI:10.15863/TAS Published: 18.12.2020.

13. Nabijonov Yu. Til ta’limida grafik organayzerlar. O’quv-uslubiy qo’llanma. – Toshkent: Mashrab, 2022. – 124 b.

14. Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o’quv yurtlarida o’quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O’quv qo’llanma. – T.: Tafakkur, 2020. – B.120.

15. Sobirova M.Y. Modulli ta’lim texnologiyalari. O’quv qo’llanma. – Namangan: Arjumand media, 2021. – B.200.